



Milliy raqs xalqimizning eng munavvar qadriyati

Mumtozbeqim Turg'unova

O'z DSMI FMF "Xoreografiya"

yo'nalishi I-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Abduhamidov Akmal

O'z DSMI FMF "Xoreografiya" o'qituvchisi

Anatatsiya: bu maqolada raqs sanati va raqs haqida, raqsning tarixi uning rivojlanish davrlari, o'zimizning milliy raqsimizning yaralish tarixi va beqiyos qadriyatlari haqida ma'lumotlar keltrilgan

Kalit so'z: raqs, ijro, tomosha, ritmika, raqs harakatlari, xoreograf, raqqos(a), gimnastika.

O'sib kelayotgan yosh avlod ongu shuriga ezgulik va nafosat estetik ma'naviy kamolotga hamda muhabbat tuyg'ularini singdirishda o'zbek milliy raqs san'atining o'rnini ahamiyati beqiyos. Milliy raqslarda xalqimizning eng munavvar qadriyatlari insoniy fazilatlar milliy an'analari ifodalaniladi.

O'zbekiston prezidentining 2020 yil 4-fevraldagi "Raqs san'ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi hamda "Milliy raqs san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorlari madaniyat va san'at taraqqiyotida o'ziga os tarixiy voqea bo'ldi. ayni qarorlar asosida Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi



negizida davlat oliy ta'lim muassasasi shaklida Madaniyat vazirligi tizimida O'zbekiston davlat xareografiya akademiyasi tashkil etildi. Ushbu akademiyada o'qitishning zamonaviy va ilg'or uslublaridan keng foydalanish o'quvchilar iqtidorini xar tomonlama rivojlantirish ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalarni, madaniyat va san'at sohasida ilm fan boyicha erishilgan ilg'or yutuqlarni tatbiq etish hamda ilmiy tadqiqotlar natijalari bo'yicha ma'naviy – ma'rifiy va ilmiy ommabop adabiyotlarni tayyorlash va nashr qilish bugungi kunning muhim masalalari sanaladi. Bundan maqsad - raqs ta'lim tizimini takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlashga bo'lgan ehtiyojni to'la qamrab olish, yangi avlod darsliklari yaratishdan iborat. Ayni paytda akademiya rektori rahbarligida ayni kunlarimizgacha yetib kelgan ma'daniy- ma'rifiy merosni dunyo xalqlariga yaqindan tanishtirish, o'zbek milliy raqs san'ati va madaniyatini keng targ'ib qilish borasida jiddiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ilmiy uslubiy tadqiqotlar zamonaviy o'zbek xareografiyasining, o'zbek milliy raqs san'atining nazariy masalalari va yechimlari bayon etilgani bilan qimmatlidir. Shu o'rinda bir ma'lumotni keltirib o'tmoqchiman. Taniqli san'atshunos O'zbekiston xalq artisti R.Karimova "O'zbek raqslari" kitobida "O'zbek xalqining milliy iftixori bo'lgan raqs san'ati necha-necha asrlar davomida shakllanib, rivoj topdi. lekin bu san'at turi yozma ravishda o'z aksini topmagan" degan edi. O'zbekiston milliy ensiklopediyasida esa: "O'zbekistonda raqs asarlar davomida yashab rivojlanib kelgan bolsa-da, o'tmishda raqs yozilmagan. Natijada qanchadan-qancha mumtoz va xalq raqslari izziz yo'qolib ketgan. Etnograf Iroida Baxta Farg'ona raqs turkumini so'z bilan yozib olganligi takidlanadi. Umuman ko'pchilik raqsshunos mutaxasislarning tadqiqotlarida "O'zbek raqslarini yozib olish XX asrning 30-yillaridan boshlandi, degan fikr ilgari surilgan. Istododli xareograf – san'atshunos Sh.To'xtasinovning g'olibo ul raqsining ixtiroidir..." maqolasida milliy tiklanishdan, milliy yuksalish sari dadil odimlayotgan mamlakatimizda xalqimizning ma'naviy kamolotini, estetik saviyasini belgilovchi ko'plab badiiy qadryatlarimizning yangi qirralarini kashf etishga ularning tarixiy ildizlarini tizimli o'rganishga alohida e'tibor berilgan.



Shuningdek, O'zbekiston davlat xareografiya akademiyasida "O'zbek milliy raqs san'atini targ'ib qilishga bag'ishlangan web-sayt va multimedia maxsulotlari to'plamini yaratish" mavzusida tayyorlangan ilmiy amaliy loyiha innovatsion rivojlanish vazirligining olimlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida tashabbuskor ilmiy tadqiqot loyihalari tanlov g'olibi sifatida barcha bosqichlardan muvaffaqiyatli o'tib, moliyalashtirishga tavsiya etiladi. Bugungi kunda loyiha ustida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Loyihaning asosiy maqsadi o'zbek raqs san'atining tarixi, tarixiy an'analari, nomli va usullari tiklash hamda boyitish, milliy raqs tarixini vatanimizning o'tmishi jaxonga mashxur allomalarimizning hayoti va ijodi bilan bog'liq xolda o'rganishdir shunikdek millatimizning o'zbekona fazilatlarini, milliy qadryatlari, boy madaniyatini aks ettiruvchi raqslari va sahna liboslari bezak va taqinchoqlarini keng jamoatchilikka, hususan, xorijiy davlatlar va sayyohlarga namoyish qilish ham muhim o'rin tutadi. Milliy raqs san'ati sohasida maktab yaratgan ustozlar ijodiy faoliyatini, raqs nomlarining mano mazmunlarini elementlari, ramz harakat va ishoralarining mohiyatini o'rganish, o'zbek milliy raqsining tarixiy ildizlarni aniqlab, raqslar va atamalarning hududiy xaritasini va kartotekasini tuzish, uning jaxon ma'daniyatida tutgan o'rni mustahkamlash borasida ham etiborga molik ishlar amalga oshirilishi belgilangan. Yo'qolib borilayotgan noyob raqs namunalari to'plash, ularning tarixi va tavsifining izoxli lug'atini yaratish, Respublikaning barcha viloyatlari va tumanlariga ilmiy ekspeditsiyalar tashkil qilish esa loyihaning muhim yo'nalishlaridan birini tashkil qiladi. Audio va video mahsulotlar doirasida jonli intervyulartayyorlash hamda horijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarning o'zbek madaniyati jumladan, o'zbek milliy raqs san'ati an'analarini saqlab qolish va rivojlantirish borasidagi faoliyatlarini qo'llab – quvvatlash maqsadida ular bilan madaniy hamkorlikda kuchaytirish ham asosiy vazifalarimizdan hisoblanadi. Ustoz shogird an'analariga asoslanib, O'zbekiston xalq artisti, Xorazm raqs maktabining yetuk namoyondasi va targ'ibotchisi Gavhar Matyoqubova hayoti va ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan manografiya hamda "Xorazm" "Lazgi"si va tavsifi" nomli lug'at – albom ustidaturli tadqiqot ishlari olib borilgan.



Ular xalqimizning hayoti, yashash tarzi, zavqu-shavqi, orzu umidini ko`rsatuvchi sahna asari ohang va ritmga javoban inson yaralgan “Aks – sado” dir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www.ziyo.uz elektron kutubxonasi
2. Avdeyeva L. A., Iz istorii uzbekskoy natsionalnoy xoreografii, T., 2001;
3. [O'zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil